ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASH VOSITALARI

Mamasadikova Muxayyo Ilhomjon qizi
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi
E-mail: qabaloq@gmail.com.
Tel:+99 833 044 09 99

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari, dastur, standartlar, intellektual rivojlanish, tafakkur, nutq, xotiras, diqqat, tasavvur, aqliy tarbiya, didaktik o‘yinlar, mantiqiy mashqlar, kuzatish, tajriba faoliyati, Abu Ali ibn Sino, jismoniy mashqlar, ota-onalar, o‘qituvchilar, aqliy tarbiyalash, amaliy, o‘yin, kognitiv vazifalar, bilim, ko‘nikmalar, kognitiv jarayonlar, qobiliyatlar, raqamlar, shakllar, rasm chizish, modellashtirish, maktabga tayyorlash, aqliy tarbiyaning roll, kreativlik, aql, his-tuyg‘u, idrok etish va boshqalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, aqliy tarbiya, vositalar, jismoniy mashqlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инструменты умственного воспитания детей дошкольного возраста, программы, стандарты, интеллектуальное развитие, мышление, речь, память, внимание, воображение, умственное воспитание, дидактические игры, логические упражнения, наблюдение, экспериментальные занятия, Абу Али ибн Сина, физические упражнения, родители, учителя, умственное воспитание, практические игры, когнитивные задачи, знания, навыки, когнитивные процессы, способности, числа, формы, рисование, моделирование, подготовка к школе, роль умственного воспитания, творчество, интеллект, эмоции, восприятие и т. д.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, умственное воспитание, инструменты, физические упражнения.

Abstract. This article discusses the tools of mental education of preschool children, programs, standards, intellectual development, thinking, speech, memory, attention, imagination, mental education, didactic games, logical exercises, observation, experimental classes, Abu Ali ibn Sina, physical exercises, parents, teachers, mental education, practical games, cognitive tasks, knowledge, skills, cognitive processes, abilities, numbers, shapes, drawing, modeling, preparation for school, the role of mental education, creativity, intelligence, emotions, perception, etc.

Key words: preschool children, mental education, tools, physical exercises.

KIRISH.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari bugungi kunda ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu dolzarblik bir necha muhim omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, maktabgacha yosh - bu bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim va sezgir davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqat va tasavvuri faol shakllanadi. Agar shu davrda samarali aqliy tarbiya vositalari (didaktik o‘yinlar, mantiqiy mashqlar, kuzatish, tajriba faoliyati va boshqalar) qo‘llanilsa, bola keyingi ta’lim bosqichlariga puxta tayyor bo‘ladi.

Ikkinchidan, zamonaviy jamiyatda bilim va axborot hajmining keskin ortib borayotgani bolalardan mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini talab etmoqda. Shu bois maktabgacha ta’limda aqliy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish bolalarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, davlat darajasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor ham mazkur masalaning dolzarbligini oshirmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dastur va standartlarda bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

To‘rtinchidan, aqliy tarbiya vositalari bolalarda bilim olish hamda o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. Masalan, o‘yin orqali o‘rganish, muammoli vaziyatlar yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi va ularni faol o‘quv subyekti sifatida shakllantiradi.

Beshinchidan, global ta’lim tendensiyalarida, xususan STEAM education yondashuvi asosida bolalarda erta yoshdan boshlab mantiqiy, ijodiy va texnik fikrlashni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bu esa aqliy tarbiya vositalarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari - ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va zamonaviy ta’lim talablariga mos shaxsni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

ADABIYOLAR. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari bevosita bolalarning jismoniy sog‘ligiga bog‘liqdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mashg‘ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o‘tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o‘yinlar va hokazolar haqidagi tushuncha va bilimlarni berish muhimdir. Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o‘rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi,

ISSN 3030-3907

organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta’limoti tashkil etadi.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino “Badan tarbiya – sog‘likni saqlashda ulug‘vor usuldir”, deb ta’kidlagan edi. Bu fikr xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan “Kimki qilsa harakat – sog‘ligida barakat” degan hikmatli naql bilan hamohangdir. Darhaqiqat, inson salomatligi ko‘p jihatdan uning harakat faolligi, jismoniy chiniqishi va to‘g‘ri turmush tarziga bog‘liq. Abu Ali ibn Sino tomonidan ilgari surilgan “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” g‘oyasi inson hayotida jismoniy va aqliy sog‘liqning uzviy bog‘liqligini ifodalaydi.

Qadimda ajdodlarimiz jismoniy tarbiyani “riyozat” deb atashgan. Bu tushuncha nafaqat jismoniy mashqlarni, balki insonning o‘zini tarbiyalashi, chiniqtirishi, iroda va sabrini mustahkamlash jarayonini ham anglatgan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida riyozat – ya’ni badan tarbiyasi haqida batafsil to‘xtalib o‘tadi. U jismoniy mashqlarni turli turlarga ajratadi va ularni me’yorida bajarish inson sog‘lig‘i uchun nihoyatda foydali ekanini ilmiy asoslaydi. Ibn Sino ayniqsa ortiqcha yoki yetarli bo‘lmagan harakatning salbiy oqibatlariga e’tibor qaratib, jismoniy mashqsiz hayot kechirish inson organizmida turli kasalliklar va noxush holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishini uqtiradi.

Shu bilan birga, u o‘rtacha va muntazam jismoniy mashqlar inson tanasidagi qon aylanishini yaxshilashi, mushaklarni chiniqtirishi, asab tizimini mustahkamlashi hamda umumiy hayotiy faollikni oshirishini alohida qayd etadi. Bu qarashlar bugungi zamonaviy tibbiyot va pedagogika ilmida ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Jismoniy mashqlarning inson salomatligidagi o‘rni haqida keyingi davr mutafakkirlari ham muhim fikrlar bildirganlar. Masalan, ingliz adibi Joseph Addison shunday deydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur”. Bu fikr inson kamolotida aqliy va jismoniy rivojlanish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Qadimgi yunon faylasufi Sokrot esa: “Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to‘g‘rilab olaman”, deya ta’kidlaydi. Bu orqali u jismoniy mashqlar tanani, ruhiy holatni, aqlni ham muvozanatga keltirishini nazarda tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari sezilarli darajada kengayib bormoqda. O‘qituvchi bolalarning turli o‘yinlarini tashkil qiladi, kuzatishlar olib boradi, sinfda sanash, rasm chizish, modellashtirish, nutqni o‘rgatadi. Maishiy faoliyat jarayonida kattalar bolalarni turli xil narsalardan foydalanishga, ishlashga o‘rgatadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar doimiy ravishda bolaning oldiga amaliy, o‘yin va kognitiv vazifalarni qo‘yadilar, ularni hal qilish bilim va ko‘nikmalarni, kognitiv

ISSN 3030-3907

jarayonlar va qobiliyatlarni shakllantirishga, turli xil faoliyat turlarini, kognitiv faoliyat motivlarini rivojlantirishga, yanada takomillashtirishga olib keladi.

Nutq va boshqalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o‘zlariga tushunarli bo‘lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg‘otish, Vatanga muhabbat tuyg‘usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy ta'lim. maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog‘chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan ihnrat. Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv zaruratdir.

Aqliy tarbiya. ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko‘rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisi bo‘lib, u yosh avlodning insoniyat to‘plagan bilimlar, konikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro‘y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishi ni ta'minlovchi xilma-xil vos talar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalaming ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roll, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog‘lanishlarda, munosabatlarda ko‘ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish

ISSN 3030-3907

qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanisliining asosiy xususiyati - bilishning majoziy shakllarining ustunligi: idrok. obrazli fikrlash, tasavvurlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi uchun maktabgacha yoshdagi alohida inikoniyatlar mavjud. Aqliy tarbiya insoniyatning ko‘p asrlik tajribasini yosh avlod tomonidau o‘zlashtirish jarayoni sifatida amalga oshiriladi. nioddiy madaniyat. ma’naviy qadrivatlar, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, bilish usullari va boshqalarda ifodalanadi. Havotning birinchi yillarida bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi - kognitiv faolivatni shakllantirish, ya'ni. bola atrofidagi dunyoni bilishni o‘rganadigan faoliyat. Kichkina bola o‘yinda, ishda, sayrlarda. darslarda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda atrofidagi dunyoni o‘rganadi. Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi - bu bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish, mantiqiy fikrlash, e'tibor, xotira, tasavvur va boshqa aqliy jarayonlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri, bolalarning aqliy va shaxsiy rivojlanishini mustahkamlash va ularga dunyoqarashni shakllantirishdir.

Bolalarning aqliy tarbiyasining ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z aqliy rivojlanishining asosiy bosqichlarini boshdan kechirmoqda. Ushbu davrda bolalar birinchidan, jismoniy va ruhiy rivojlanishning ko‘plab elementlarini o‘zlashtiradi. Aqliy tarbiya bu rivojlanishni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, chunki bolalarning tafakkuri va mantiqiy qobiliyatlari aynan shu davrda shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya: Asosiy prinsiplar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda asosiy prinsiplardan biri, ular bilan interaktiv va o‘zgartiruvchi muhit yaratishdir. Bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Boshqaruvga yo‘naltirilgan faoliyat. Bolaga faqat bilim berish emas, balki ularning faoliyatini boshqarish ham kerak. Bu ko‘proq o‘yinlar, mashqlar va amaliy ishlar orqali amalga oshiriladi.

Hissiy va aqliy rivojlanishni birlashtirish. Bolalar har doim yangi tajribalarni olish va ko‘proq bilimlarni o‘zlashtirishni xohlaydilar. Shu sababli, ular bilan hissiy va aqliy faoliyatlarni birlashtirish muhimdir.

ISSN 3030-3907

O‘yin va kreativlik. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin orqali eng yaxshi rivojlanadilar. O‘yin jarayonida bolalar turli xil masalalarni yechish, yangicha fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradilar.

Aqliy tarbiyada metodlar va yondashuvla.

Interaktiv metodlar: Bolalarni faol ishtirok etishga, savollar berishga, muammolarni hal qilishga jalb qilish muhimdir. Bu metodlar bolalarda mantiqiy fikrlash va kreativlikni rivojlantiradi.

Ijtimoiy faoliyatlar: Bolalar birgalikda ishlash orqali o‘zaro hamkorlikni, jamoaviy ishlarni o‘rganadilar, bu esa aqliy va ijtimoiy rivojlanish uchun juda muhimdir.

Tasavvur va tafakkur o‘yinlari: Mantiqiy o‘yinlar, testlar va mashqlar bolalarni qiziqtiradi va ularni yangi bilimlar bilan tanishtiradi. Bu o‘yinlar bolalarda xotira va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Erkin fikrlashni rag‘batlantirish: Bolalarni har xil masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishga rag‘batlantirish ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Ularga savollar berish va ularning javoblarini tinglash orqali bolalarning o‘z-o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshirish mumkin. O‘qituvchilar va tarbiyachilarning roli Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi jarayonida o‘qituvchilar va tarbiyachilar juda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat bilim beruvchilar, balki bolalar uchun ko‘rsatkich rahbar va do‘stdir. Ularning roli quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Bolalar bilan individual ishlash: Har bir bola o‘z xususiyatlariga ega, shuning uchun ularning rivojlanishini individual yondashuv asosida kuzatish va qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Motivatsiya yaratish: Bolalarga o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ularga maqsadga erishish uchun rag‘batlantirish kerak. Bu jarayon o‘qituvchining ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishiga bog‘liq.

Bolalar uchun o‘qish va o‘yinlarni moslashtirish: O‘qituvchilar o‘quv dasturlarini va o‘yinlar orqali bolalar uchun qiziqarli va foydali faoliyatlar yaratishi lozim. Aqliy tarbiya uchun o‘quv dasturlari va faoliyatlar Aqliy tarbiya uchun turli o‘quv dasturlari va faoliyatlar ishlab chiqilgan. Ularga quyidagilar kiradi: Matematik va mantiqiy mashqlar: Bolalarni raqamlar va shakllar bilan tanishtirish oddiy arifmetik masalalarni yechish, mantiqiy o‘yinlar o‘ynash.

San'at va musiqiy faoliyatlar: Rassomlik va musiqa orqali bolalarning kreativliklari va aqliy qobiliyatlari rivojlanadi. Tabiat bilan tanishish: Tabiyatdagi ob'ektlar bilan tanishish, o‘simliklar va hayvonlar haqida bilim olish bolalar uchun qiziqarli va aqliy rivojlanishga yordam beruvchi faoliyatdir. Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir qiladi. Bu davrda bolalar nafaqat intellektual, balki

ISSN 3030-3907

ijtimoiy, hissiy va jismoniy jihatlarda ham rivojlanadilar. To‘g‘ri yondashuv va o‘qituvchilarning faol ishtiroki orqali bolalar o‘zlarining aqliy salohiyatlarini maksimal darajada rivojlantirishi mumkin.

XULOSA. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari keng qamrovli bo‘lib, ular bolaning fikrlash, idrok etish, xotira, diqqat va nutq kabi muhim psixik jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu vositalarga o‘yinlar (didaktik, rolli va harakatli o‘yinlar), kuzatish, suhbat, kitob o‘qish, tasviriy faoliyat, konstruktiv mashg‘ulotlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar kiradi. Ayniqsa, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali vosita bo‘lib, ular orqali bolalar atrof-muhitni anglaydi, muammoli vaziyatlarni hal qilishni o‘rganadi va mustaqil fikrlashga odatlanadi.

Aqliy tarbiya vositalaridan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi, ularni maktab ta’limiga puxta tayyorlaydi hamda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois tarbiyachilar va ota-onalar ushbu vositalardan samarali foydalanib, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kushakova.G .Мактабгача ёшдаги болаларни толерантлик руҳида тарбиялаш. Бола шахсини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. II – Халқаро илмий – амалий анжуманининг тезис ва мақолалар тўплами. Тошкент, 2008. –Б. 107- 108
2. Usmonova.M.Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklarining o‘rni. Umumfilologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bahodir Fayzullaevning 60 yillik yubileyiga bag‘ishlangan ilmiy –amaliy anjuman materiallari. Jizzax -2011 yil. 218 -219 bet
3. Норқўзиева.М.А.Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюк сиймоларнинг роли. Мактабгача таълимтизимини ривожлантиришда илмий-амалий инновацияларнинг педагогик аҳамияти халқаро илмий-амалий конференция 2020 йил 11- 12 ноябрь Самарқанд, 1.
4. Belkin A.S. Yosh pedagogikasining asoslari: Prok. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq ped. darslik bosh / A.S. Belkin - M.: Akademiya, 2008. - 192 p

ISSN 3030-3907